


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVASIYALAR
VAZIRLIGI
ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
OILAVIY TIBBIYOTDA ICHKI KASALLIKLAR KAFEDRASI**

“TASDIQLAYMAN
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
prof 9 **G.J.Jarilkasinov**
“ 27 ” 08 2025



**TERAPIYA:
AMBMBULATOR-POLIKLINIK TERAPIYA
MODUL ISHCHI DASTURI**

Bilim sohasi:	500 000 -	Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta‘minot
Ta‘lim sohasi:	510000 -	Sog‘liqni saqlash
Ta‘lim yo‘nalishi :	5510100 -	Davolash ishi
	5111000 -	Professional ta‘lim (5510100-Davolash ish)

Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi TOP -10 talik ro‘yxatga kiruvchi University of Cambridge (Великобритания) ta‘lim dasturi asosida tayyorlandi.
<https://www.gmc-uk.org/education/standards-guidance-and-curricula/curricula/general-internal-medicine-curriculum>

Buxoro – 2025

Ushbu modulning ishchi dasturi Sog'liqni saqlash vazirligi 2021 yil 4 iyun dagi buyrug'i va 2019 yil 12.08.209-sonli buyrug'ining 4.2 ilovasi asosida kafedra professor o'qituvchilar tomonidan tayyorlandi.

Tuzuvchi :

Rahmatova D.B. - BuxDTI Oilaviy tibbiyotda ichki kasalliklar kafedrasi dotsenti PhD

Atoeva M.N. - BuxDTI Oilaviy tibbiyotda ichki kasalliklar kafedrasi assistenti

Taqrizchilar :

Naimova Sh. A. - BuxDTI Gematologiya KDL nefrologiya va gemodializ kafedrasi dotsenti, DSc

Ismatova M.N. - BuxDTI Fakultet va gospital terapiya kafedrasi dotsenti

Kafedrada o'tiladigan fanlarning o'quv-uslubiy hujjatlari kafedra yig'ilishida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi .

Bayonnomasi № 1 "26" "08" 2025 yil

Kafedra mudiri :



Badriddinova N.N

Barcha yo'nalishlarda o'tiladigan fanlarning o'quv- uslubiy hujjatlari institut Ilmiy kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi.

Bayonnomasi № 1 "27" "08" 2025 yil

Ofis registrator boshqarma boshlig'i :



O.B.Raxmatov

**Ta'lim jarayonlarni muvofiqlashtirish
sektori bosh mutaxassisi :**



Adilova R.H

Modulning to'liq nomi	Ambulator poliklinik terapiya		
Modul kodi: 3.03	Kredit hajmi: <i>umumiy - 13,0 kredit Shundan: 11-semestr – 7 kredit</i> Joriy nazorat – 7 kredit;	Modul o'tilish davri: 11-12 semestr	ECTS value:
	Oraliq nazorat – 0 kredit (o'tilishi majburiy) <i>12- semestr – 6 kredit</i> Joriy nazorat – 6 kredit; Yakuniy nazorat – 0 kredit (o'tilishi majburiy)		
Ta'lim yo'nalishi	5510100 – «Davolash ishi» 5511100 – «Professional ta'lim (5510100- Davolash ishi)»	6 bosqich bakalavrlari	
Modulning davomiyligi	42 kun		
O'quv soatlari hajmi:	Jami soat:	468	
	Shuningdek:		
	ma'ruza	36	
	amaliy mashg'ulot	108	
	klirik o'quv amaliyoti	108	
	mustaqil ta'lim	216	
O'quv modulining statusi	Klinik modullar bloki		

1. O'quv modulining dolzarbligi va oliy ta'limdagi o'rni

Modul dasturi O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standarti va bakalavriat ta'lim yo'nalishi malaka talablariga asoslangan holda tuzilgan. Ushbu dastur asosida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'qitish jarayonida qo'llagan holda, talabani nazariy ma'lumotidan boshlang'ich amaliy ko'nikmalarni fantomlarda bajarishga o'rgatib, orttirilgan ko'nikmalarni zamonaviy tibbiy texnologiyalar orqali klinik amaliyot bilan uyg'unlashtirgan holda qo'llashga imkon yaratadi.

Ambulator poliklinik terapiya moduli tibbiyot oliygohlari davolash, tibbiy – pedagogika, va xarbiy tibbiyot fakultetlarining 6 kurs talabalari uchun o'quv dasturi sifatida qabul qilingan. Bu modulda «UASh malakaviy tavsifnomasi» talablariga asosan ko'rib chiqilgan holda – Sog'liqni saqlashning birlamchi bo'g'inida shifokor yordamini ko'rsatishning asosiy bilim va amaliy ko'nikmalariga kiruvchi: kasalliklar profilaktikasi, ichki kasalliklari bor bemorlarni erta aniqlash, qiyosiy tashxis o'tkazish va ularni rejali ravishda olib borish, kasalxonada bemorlarga tashxis qo'yish, qiyosiy tashhis o'tkazish, olib borish taktikasini tanlash ko'nikmalarini to'liq egallagan UASh tayyorlash imkoniyatini beradi.

Modul dasturi boshqa modullar bilan aloqasi: normal anatomiya, patologik anatomiya, normal fiziologiya, gistologiya, bioximiya, biofizika, tibbiyot genetikasi, bioximiya, mikrobiologiya, patologik fiziologiya, umumiy xirurgiya va farmakologiya modullari.

2. O'quv modulining maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi - nazariy, uslubiy va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish yo'li bilan talabani mustaqil faoliyatga tayyorlash, nazariy va klinik modullarni o'zlashtirish uchun zarur poydevor bilimlarni shakllantirishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun modul talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, eng ko'p uchraydigan kasalliklarni kelib chiqish asoslarini, kasalxonagacha bo'lgan davrda umumiy tashhislash tamoillari, kasallikni klinik ko'rinishi, laborator va instrumental tekshiruv usullari, davolashi, reabilitatsiyasi, kasalliklarni oldini olish (profilaktika) usullarini bilishi va ko'nikmalarini hosil qilishga zamin yaratadi.

Sog'liqni saqlash birlamchi bo'g'inida asosiy bilim, shifokor yordamini ko'rsata olish ko'nikmalarini: erta tashxis, qiyosiy tashxis, profilaktika va bemorlarni olib borish taktikasini o'z ichiga oluvchi umumiy amaliyot shifokori kvalifikatsion xarakteristikasiga «Davolash ishi» ixtisosligi talablariga javob beruvchi UASh tayyorlash uchun quyidagi vazifalar qo'yilgan:

2. Modulning vazifalari:

- Ichki a'zolar kasalliklarning birlamchi va ikkilamchi profilaktikasi, turli aholi guruhlarida profilaktik ko'riklarni tashkil qilish;
- Ichki a'zolar kasalliklarini aniqlash, davolash va dispanser nazoratiga olish;
- Ambulator poliklinik boskichida etika va deontologiya tamoyillari;
- Ichki a'zo kasalliklarining asosiy simptomlari va sindromlari;
- Ichki a'zo kasalliklarning tashxisi, differensial tashxisi;
- Ichki a'zo kasalliklari bilan davolangan bemorlar reabilitatsiyasi.

2.3. Modul bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar: 11- semestr yakunida:

Talaba:

- kasalliklarning qiyosiy tashxisini o'tkazish;
- UASh malakaviy tavsifnomasi, ichki kasalliklarda davolash taktikasi;
- UASh amaliyotida ko'p uchraydigan asosiy klinik sindromlar, malakaviy tavsifnomasida ko'rsatilgan ichki kasalliklarning tashxis mezonlari va xavf omillari; makaviy tavsifnomasida ko'rsatilgan ichki kasalliklarning klinikasi va tashxis qo'yish;
- UASh taktikasi, zamonaviy davolash standartlari, mehnatga layoqatlilik ekspertizasi, dispanserizatsiyasi va reabilitatsiyasi asoslari to'g'risida **tasavvurga ega bo'lishi kerak**;
- klinik tashxisni asoslash;
- kasalliklarni qiyosiy taqqoslash;
- yakuniy tashxisni asoslash;
- parxez va rejali davolashni tavsiya etish

bilishi va ulardan foydalana olishi kerak;

- ichki kasalliklar bilan og'rigan bemorlarni professional so'rov va ko'rikdan o'tkazish, ichki a'zolarini ob'ektiv tekshirish;
- EKG olish va tahlil qilish;
- pikfloumetriya o'tkazish va natijasini taxlil qilish;
- mos parxez va davolash rejasini buyurish
- **malakalariga (shu jumladan amaliy ko'nikmalariga) ega bo'lishi kerak.**

12-semestr yakunida:

- QVP/OP darajasida kasalliklarning erta tashxisini mustaqil ravishda to'liq amalga oshirish, ayrim hollarda, ya'ni bemor ahvoli yaxshilanmasa

sogʻliqni saqlashning boshqa tashkilotiga (poliklinika, shifoxona) qoʻshimcha maslahat va davolash uchun yuborish (**KVX, 1 toifali xizmat**);

– QVP/OP sharoitida imkoniyatiga qarab oʻtkir holatlar va kasalliklarni ajrata bilish va ularni davolash, lozim boʻlsa qoʻshimcha maslahat va davolash uchun mutaxassis koʻrigiga yuborish (**KVX, 2 toifali xizmat**);

– QVP/OP sharoitida bemorlarga adekvat tekshirish va muolajalarni buyurish, natijalarini tahlil qilish (**KVX, 3.1 toifali xizmat**);

– OP va boshqa tibbiy muassasalarga zarur boʻlgan tekshiruvlarga yuborish (**KVX, 3.2 toifali xizmat**);

– QVP/OPga har xil sabablar tufayli murojaat qilayotgan bemorlar va spesifik xavf omillariga moyil boʻlgan shaxslarga, sogʻlom insonlarga profilaktik yordamini taqdim etish **tasavvurga ega boʻlishi kerak**;

– sogʻlom turmush tarzini targʻibot qilish;

– sogʻlom aholi va bemorlarga maslahat berish;

– bemorlarni mustaqil qabul qilish;

– bemorlarda shikoyatlari va anamnez yigʻish, klinik tekshiruv oʻtkazish, tekshiruv rejasi va davolash boʻyicha tavsiyalar berish

– **bilishi va ulardan foydalana olishi kerak**;

– qayta tiklash va sanatoriylarga yuborish;

– dispanserizatsiya ishlarni oʻtkazish;

– infeksiyon va noinfeksiyon bemorlarda profilaktik, sogʻlomlashtirish tadbirlarini qoʻllash;

– zarur tibbiy muolajalarni oʻtkazib, shoshilinch tibbiy yordamni koʻrsatish;

– mehnatga layoqatlilik masalasini hal qilish;

– kerakli tibbiy hujjatlarni toʻldira bilish;

– tibbiy adabiyotlar bilan ishlash;

– kompyuter bilan ishlash

– **malakalariga (shu jumladan amaliy koʻnikmalariga) ega boʻlishi kerak.**

3. Asosiy qism

3.1. Moduldagi maʼruza mashgʻulotlari mavzulari va mazmuni, tashkil boʻyicha umumiy koʻrsatma va tavsiyalar:

11- semestr:

Ichki kasalliklar (statsionar va ambulator terapiya) moduli

1-mavzu. Oilaviy tibbiyot asoslari.

Oilaviy tibbiyot tarixi. Oʻzbekistonda rivojlanish. UASh ishlash tamoyillari.

2- mavzu. Koʻkrak qafasidagi ogʻriq sindromi.

Koʻkrak qafasidagi koronarogen ogʻriqlar differensial tashxisi. YuIK, MI kechish xususiyatlari. Davolash. Profilaktika. UASh taktikasi.

3- mavzu. Aritmiya sindromi.

Aritmiyalarda differensial diagnostika. Davolash. Profilaktika. UASh taktikasi

4- mavzu. Arterial gipertenziya sindromi.

Arterial gipertenziyalarda differensial tashxis. Profilaktika. UASh taktikasi

5- mavzu. Balgʻamli yoʻtal va qon tuflash sindromi. Oʻpkada soylanish sindromi.

Balgʻamli yoʻtal va qon tuflash sindromini qiyosiy tashxislash. Profilaktika. UASh taktikasi. <https://www.gmc-uk.org/education/standards-guidance-and-curricula/curricula/respiratory-medicine-curriculum>

6- mavzu. Shish sindromi.

Shish sindromida differensial tashxis. Profilaktika. UASh taktikasi. <https://www.gmc-uk.org/education/standards-guidance-and-curricula/curricula/renal-medicine-curriculum>

7- mavzu. Boʻgʻim sindromi.

Boʻgʻim sindromida differensial tashxis. Davolashga individual yondoshish. Profilaktika. UASh taktikasi. <https://www.gmc-uk.org/education/standards-guidance-and-curricula/curricula/rheumatology-curriculum>

8- mavzu. Gepatomegaliya va sariqlik sindromi.

Gepatomegaliya va sariqlik sindromida differensial tashxis. Profilaktika. UASh taktikasi. <https://www.gmc-uk.org/education/standards-guidance-and-curricula/curricula/gastro-enterology-curriculum>

9- mavzu. Proteinuriya sindromi.

Proteinuriya bilan kechuvchi kasalliklarning qiyosiy tashhisi. Profilaktika. UASh taktikasi. <https://www.gmc-uk.org/education/standards-guidance-and-curricula/curricula/renal-medicine-curriculum>

12- semestr:

1- mavzu. UASh amaliyotida shaxslararo muloqot.

2- mavzu. Sogʻliqni saqlashning birlamchi boʻgʻinida yurak-qon tomir kasalliklarining profilaktikasi

3- mavzu. Bronxoobstruktiv sindrom. Bronxoobstruktiv sindromda differensial tashxis. Profilaktika. UASh taktikasi.

4- mavzu. Kardiomegaliya va yurakdagi shovkin sindromi

Kardiomegaliya va yurakdagi shovqinlar differensial diagnostikasi. Profilaktika. UASh taktikasi. <https://www.gmc-uk.org/education/standards-guidance-and-curricula/curricula/cardiology-curriculum>

5- mavzu. Surunkali yurak yetishmovchiligining qiyosiy tashxisi. Zamonaviy diagnostikasi, bemorlarni olib borish taktikasi. Profilaktika

6- mavzu. Disfagiya va dispepsiya sindromi. Qiyosiy tashxis. UASh taktikasi.

7- mavzu. Patologik siydik choʻkmasida differensial tashxis.

Leykotsituriya, gematuriya, silinduriya va boshkalar bilan kechadigan kasalliklarning differensial tashxisoti. Profilaktika. UASh taktikasi. <https://www.gmc-uk.org/education/standards-guidance-and-curricula/curricula/renal-medicine-curriculum>.

8- mavzu. Isitmalash sindromi. Noanik etiologiyali isitma. Profilaktika. UASh taktikasi

9- mavzu. Gerontologiya va umumiy geriatriya.

Qariyalar muammolari. Qariyalarda ichki kasalliklar kechish muammolari va xususiyatlari. Ushbu kategoriya bemorlari bilan ishlash tamoyillari. UASh taktikasi. <https://www.gmc-uk.org/education/standards-guidance-and-curricula/curricula/geriatric-medicine-curriculum>

3.2. Moduldagi amaliy mashgʻulotlarning mavzulari, tashkil etish boʻyicha umumiy koʻrsatma va tavsiyalar:

Modul boʻyicha mashgʻulotlar 50% nazariy (maʼruza va amaliy mashgʻulot) va 50% amaliy qism (oʻquv klinik amaliyot)dan iborat boʻlgan holda oʻtkaziladi. Amaliy mashgʻulotning nazariy va amaliy qismi oʻzaro bogʻliq holda oʻtkaziladi.

3.2.1. Amaliy mashgʻulotlarning mavzular roʻyhati:

11-semestr:

STATSIONAR TERAPIYA

1- mavzu. Oilaviy tibbiyot asoslari. UASh vazifalari. Ishlash xususiyatlari. Tibbiy hujjatlar. UASh faoliyatida etika va deontologiya. Shaxslararo muloqot. Muloqotga ta'sir qiluvchi omillar. Muloqotdagi qiyinchiliklar. Amaliy maslahatlar. Konsultatsiya. Konsultatsiya turlari. Konsultatsiya prinsiplari. Bemorning o'z salomatligiga javobgarligi.

2- mavzu. UASh amaliyotida differensial diagnostika. Taxminiy tashxis. Stasionar va ambulator sharoitda klinik tashxisni shakllantirish. Ichki kasalliklar tashxisotida diagnostik xatolar sabablari. Xavfli kasalliklar haqida tushuncha. Imitator kasalliklar. Psixik buzilishlar va simulyatsiya. Shifokor faoliyatida polipragmaziya.

3- mavzu. Balg'am ajralishi bilan kechuvchi yo'tal sindromi. Kasalxonadan tashqari va kasalxona ichi pnevmoniyalarini taqqoslama tashxislash. Turli etiologiyali zotiljamlar (bakterial, virusli, mikoplazmozli). Pnevmoniya aniqlanganda UASh taktikasi. <https://www.gmc-uk.org/education/standards-guidance-and-curricula/curricula/respiratory-medicine-curriculum>

4- mavzu. O'pka disseminatsiyasi va o'pkada soyalanish sindromi. O'pkaning segmentar va bo'lakli soyalanishida qiyosiy taqqoslash. Bo'lakli pnevmoniya, o'pkaning infiltrativ sili, o'pka infarkti, o'choqli zotiljam, tuberkuloma, o'pka absessi, o'pka o'smasi, o'pka exinokokki, o'pka silining gemotogen- disseminirlangan shakli, pnevmokonioz, o'pka metastazi. UASh taktikasi va profilaktika usullari.

5- mavzu. Qon tuflash sindromi. Turli nozologik shakllarda qiyosiy tashxis va UASh taktikasi (rak, o'pkaning yiringli kasalliklari, O'ATE, o'pka sili). O'pka arteriyasi tromboemoliyasida hospitalgacha va hospital bosqichda taktika.

6- mavzu. Hansirash, bo'g'ilish sindromi. Bronxoobstruksiya bilan kechadigan kasalliklarning differensial diagnostikasi (bronxial astma, SO'OK, o'pka o'smasi). Yurak va o'pka patologiyasida hansirashning qiyosiy tashxisoti. UASh taktikasi.

7- mavzu. Aritmiyalar. Sinusli taxikardiya, bradikardiya, sinusli aritmiyalar, ritm boshqaruvchisi migratsiyasi, sinus tuguni sustligi sindromi, ekstrasistoliyalar hamda bo'lmachalar va qorinchalar titrashi, hilpirashi (doimiy va paroksizmal), paroksizmal taxikardiya, qorinchalarning vaqtdan oldin qo'zg'alishi sindromi qiyosiy tashxisoti UASh taktikasi. Yuqori xavf guruhlarini aniqlash. <https://www.gmc-uk.org/education/standards-guidance-and-curricula/curricula/cardiology-curriculum>

8- mavzu. Aritmiyalar. Sinoatrial, bo'lmacha ichi, atrioventrikulyar va qorincha ichi blokadalarida qiyosiy tashxisot. UASh taktikasi. EKSga ko'rsatma.

9- mavzu. Arterial gipertenziya sindromi. Gipertoniya kasalligi va buyrak bilan bog'liq arterial gipertenziyalarning qiyosiy tashxisoti. Buyrak kasalliklari bilan bog'liq arterial gipertenziyalarning shakllari (parenximatoz, renovaskulyar). UASh taktikasi. <https://www.gmc-uk.org/education/standards-guidance-and-curricula/curricula/cardiology-curriculum>

10- mavzu. Gipertoniya kasalligi va endokrin AG ni differensial diagnostikasi. Endokrin AG turlari (feoxromotsitoma, Konn sindromi, Itsengo Kushing sindromi, tireotoksikoz). Gipertoniya kasalligida gipotenziv terapiyani tanlash. Simptomatik AGda asosiy kasallikni hisobga olgan holda gipotenziv terapiyani tanlash. Gipertonik krizlarda UASh taktikasi. Xirurgik davoga ko'rsatma.

11- mavzu Arterial gipertenziya sindromi. Gipertoniya kasalligi, gemodinamik va serebral AG (bosh miya travmalari, vertebro bazillyar sindrom, araxnoidit, ensefalit, bosh miya o'smasi), sklerotik AGni differensial diagnostikasi. Gipertoniya kasalligida gipotenziv terapiyani tanlash. Simptomatik AGda asosiy kasallikni hisobga olgan holda gipotenziv terapiyani tanlash. Gipertonik krizlarda UASh taktikasi.

12- mavzu. Yurak sohasida og'riq. UASh amaliyotida yurak sohasidagi koronarogen og'riqlar qiyosiy tashxisi va olib borish taktikasini tanlash. YuIK stabil stenokardiya va nostabil stenokardiylarning klinik, laborator, EKG diagnostikasi. YuIK diagnostikasida jismoniy yuklamali EKG ahamiyati. Yuklamali EKG natijalarining tahlili.

13- mavzu. Yurak sohasida og'riq. O'tkir koronar sindrom qiyosiy tashxisi. Miokard

infarktining turli klinik shakllari va bosqichlarining taqqoslama

tashxisoti. MI asoratlari (kardiogen shok, o'pka shishi, yurak anevrizmasi, Dressler sindromi). MI gospitalgacha, statsionar va ambulator olib borish.

14- mavzu. Yurak shovqinlari va kardiomegaliya. Miokardit va kardiomiopatiyaning turli xil klinik formalari (dilyatatsion, restriktiv, gipertrofik, o'ng qorinchaning aritmogen displaziyasi)da taqqoslama tashxisot. KMPlarni erta aniqlash. Profilaktika va UASh taktikasi. <https://www.gmc-uk.org/education/standards-guidance-and-curricula/curricula/cardiology-curriculum>

15- mavzu. Qorinda og'riq. Gastrit va yara kasalligi (12 b.i va oshqozon), surunkali xolesistit va surunkali pankreatit, nospesifik yarali kolit va Kron kasalligini qiyosiy tashxisi. Profilaktika. UASh taktikasi. <https://www.gmc-uk.org/education/standards-guidance-and-curricula/curricula/gastro-enterology-curriculum>

16- mavzu. Gepatomegaliya va sariqlik sindromi. Surunkali faol gepatit, jigar sirrozi, o't-tosh kasalligi,iliar-pankreatik soha o'smalari (jigar, o't qopi, oshqozonosti bezi o'smalari) ni solishtirma tashxislash. Sariqliklar diagnostikasi. UASh taktikasi. <https://www.gmc-uk.org/education/standards-guidance-and-curricula/curricula/gastro-enterology-curriculum>

17- mavzu. Bo'g'im sindromi. Revmatik isitma va revmatoid artrit, seronegativ spondiloartritlar qiyosiy diagnostikasi. SQB, SSD va dermatomiozitni qiyosiy tashxislash. Gemorragik vaskulit, tugunchali periarteriitni qiyosiy tashxislash. UASh taktikasi.

18- mavzu. Siydik cho'kmasidagi o'zgarishlar. Patologik siydik cho'kmasini qiyosiy tashxislash (pielonefrit, glomerulonefrit, interstitsial nefrit). Pielonefrit, glomerulonefrit, interstitsial nefritni qiyosiy tashxislash. <https://www.gmc-uk.org/education/standards-guidance-and-curricula/curricula/renal-medicine-curriculum>

19-mavzu. Proteinuriya. Nefropatiyalarning (homiladorlikdagi, diabetik, dori darmonli) va amiloidozning solishtirma tashhisi. UASh taktikasi. Surunkali buyrak kasalligining turli bosqichlaridagi o'zgarishlar. <https://www.gmc-uk.org/education/standards-guidance-and-curricula/curricula/renal-medicine-curriculum>.

<https://www.gmc-uk.org/education/standards-guidance-and-curricula/curricula/genito-urinary-medicine-curriculum>

20-mavzu. Shish sindromi. Turli etiologiyali shishlarning qiyosiy tashhisoti. Mahalliy (allergik, tomirli, yallig'lanishli). UASh taktikasi. <https://www.gmc-uk.org/education/standards-guidance-and-curricula/curricula/renal-medicine-curriculum>.

<https://www.gmc-uk.org/education/standards-guidance-and-curricula/curricula/genito-urinary-medicine-curriculum>

21-mavzu. Shish sindromi. Umumiy (qon aylanish y e tishmovchiligida, buyrak shishlari, endokrin shishlar va ochlikdagi shishlarda). UASh taktikasi.

12 semestr:

AMBULATOR TERAPIYA

1- mavzu. Oila bilan ishlash. Ishning xususiyatlari. Oilada psixologik muhit. Din va marosim muammolari. Oila konsultatsiyasi. Amaliy maslahatlar. Maslahat turlari. Bemorning o'z salomatligiga javobgarligi (birlamchi zvenoda dispanser kuzatuv va monitoring). Bolalar, o'smirlar fertil yoshdagi ayollar, homilador ayollar, erkaklar, qariyalar. Sotsial- himoyalangan insonlar. Bemorlar, qiyin bemorlar, o'layotgan bemorlar. Terapevtik bemorlarni rehabilitatsiya va dispanserizatsiya masalalari. Mexnatga layoqatlilik ekspertizasi.

2- mavzu. UASh amaliyotida profilaktika. Infekcion va noinfekcion kasalliklar profilaktikasi. Immunizatsiya. Dastur va tadbirlar. Sanitar oqartuv ishlari. O'lim darajasi va kasallanishning asosiy omillariga ta'sir qilish. Ruhiy statusni mustaxkamlash. Ekologiya va kasbiy omillar. Bemorlarni o'qitish - «salomatlik maktablari». Profilaktik ko'riklar o'tkazish usullari. Skrining.

3- mavzu. Sog'lom ovqatlanish. ovqat tarkibi, ovqatlanish piramidasi, sog'lom ovqatlanish -

turli kasalliklar profilaktikasi. YuQT, o'pka, me'da-ichak, buyrak kasalliklarida dietoterapiya. Bemorlarning dietoterapiyaga moyilligini aniqlash. UASh tushuntirish ishlari.

4- mavzu. Balgamli yutal sindromi. O'RK, O'RVI, o'tkir bronxit va pnevmoniyada kiyosiy tashxis. UASh taktikasi. Birlamchi tizimda respirator kasalliklar profilaktikasi, davolash.

5- mavzu. Ko'krak qafasida og'riq. Ko'krak qafasidagi nokoronarogen og'riqlarda UASh taktikasi. Ambulator davolash. Birlamchi yordam va profilaktika.

6- mavzu. Yurak shovqinlari va kardiomegaliya. Yurak cho'qqisidagi shovqinning taqqoslama tashxisoti. Funktsional (miokardial, anemik, qon o'zgarishlarida, isitmada) va organik (mitral va aortal nuqsonlar) shovqinlar qiyosiy tashxisi. Asoratlarni oldini olish chora-tadbirlari. Xirurgik davoga ko'rsatmalar.

7- mavzu. Yurak shovqinlari va kardiomegaliya. Tug'ma yurak nuqsonlarini qiyosiy tashxislash. Xavf omillari. Fertil yoshidagi ayollar bilan profilaktik tadbirlarni o'tkazish. Bakterial endokarditli bemorlarni olib borish taktikasi. UASh taktikasi.

8- mavzu. Yurak urib ketishi. Turli xil aritmiyalar va blokadalarda UASh taktikasi va profilaktika (yuqori xavf guruhlarini aniqlash). Ambulator sharoitda davolash xususiyatlari. Rejali va tezkor elektroimpuls terapiyaga ko'rsatmalar. Yurak ritmi buzilishlari profilaktikasi.

9- mavzu. Bosh og'rig'i. Gipertoniya kasalligini xavf guruhlari stratifikatsiyasi. UASh taktikasi. Birlamchi zveno sharoitida gipertoniya kasalligi va SAG profilaktikasi.

10- mavzu. Xansirash va bo'g'ilish sindromi. SO'OK va bronxial astmani birlamchi zveno sharoitida diagnostikasi. UASh taktikasi. SO'OK va BA ni birlamchi zveno sharoitida davolash va profilaktika ishlari (xuruj va xurujdan tashqari vaqtda kuzatish va ambulator davolash). Sanator-kurort davoga ko'rsatma. Astmani nazorat qilish va qadamma-qadam davolash. SNE bilan og'rigan bemorlarni olib borish.

11- mavzu. Bo'g'im sindromi (artralgiya va artritlar). Reaktiv artritlar va artrozlarni birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi profilaktikasi. <https://www.gmc-uk.org/education/standards-guidance-and-curricula/curricula/rheumatology-curriculum>

12- mavzu. Disfagiya. Ezofagit, reflyuks-ezofagit, sklerodermiyadagi disfagiya va qizilo'ngach o'smalarini taqqoslama tashxisoti. Profilaktika. UASh taktikasi. <https://www.gmc-uk.org/education/standards-guidance-and-curricula/curricula/gastro-enterology-curriculum>

13- mavzu. Dispepsiya (jig'ildon qaynashi, ko'ngil aynishi, qusish). Birlamchi zvenoda sekresiya buzilishi bilan kechadigan kasalliklar: me'da va 12 ichak yara kasalligi, o't yo'llari diskineziyasi, xolesistitni davolash va profilaktikasi. <https://www.gmc-uk.org/education/standards-guidance-and-curricula/curricula/gastro-enterology-curriculum>

14- mavzu. Qorinda og'riq sindromi. Qorin epi-, mezo-, gipogastral soxalarida og'riq bilan kechuvchi kasalliklarning qiyosiy tashxisi. Profilaktika.

15- mavzu. Diareya. Infeksion va noinfeksion etiologiyali diareyada differensial diagnostika. Yo'g'on ichak ta'sirlanish sindromi. Tasnifi. Mezonlari. UASh taktikasi.

16- mavzu. Qabziyat sindromi. Qariyalarda ich kotishi va yo'g'on ichak o'smasi profilaktikasi. UASh taktikasi.

17- mavzu. Gepatomegaliya. O'tkir gepatit, surunkali gepatit, alkogolli jigar kasalliklari, infeksion va noinfeksion etiologiya jigar sirrozi profilaktikasi va UASh taktikasi.

18- mavzu. Dizuriya. O'tkir va surunkali pielonefrit, sistit va siydik diatezida profilaktika. UASh taktikasi.

19- mavzu. Isitma. Noanik genezli isitma. Isitma xarakteri, tiplari. Tekshiruv rejasi. UASh taktikasi.

20- mavzu. Geriatriya. Yosh normasi muammolari. Qarilikda funksional va organik o'zgarishlar. Qariyalar oziqlanishining fiziologiyasi va gigienasi. Ateroskleroz klinikasi va dinamik kuzatuv. Keksalar emfizemasi. Ateroskleroz va emfizema, SUOK rivojlanishiga moyillik tug'diruvchi yoshga xos o'zgarishlar Keksalarda bu holatlar kuzatilganda UASh taktikasi va kuzatuv usullari. <https://www.gmc-uk.org/education/standards-guidance-and-curricula/curricula/geriatric-medicine-curriculum>

21- mavzu. Geriatriya. Qariyalarda oshqozon-ichak trakti kasalliklari va siydik ajratish tizimi kasalliklarining qariyalarda kuzatilishi va muammolari. Bu kasalliklar rivojlanishiga moyillik tug'diruvchi yoshga xos o'zgarishlar.

3.2.2. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- Amaliy mashg'ulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;
- O'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- Talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- Talabani nazariy-metodiy jihatdan tayyorlash va h.k.

3.2.3. Modulni o'qitish davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar va kompetensiyalar:

Modul davomida talabalar ambulator diagnostika va davolash rejasini tuza olishi, reabilitatsiya chora tadbirlarini o'tkaza olishi, dispanserizatsiya va profilaktika guruhlariga ajratish, profilaktik emlash rejasini tuzish, og'ir bemorlarni saralash va shoshilinch yordam ko'rsata olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Modul davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yhati:

O'quv (klinik) amaliyotini o'tish davrida talabalar quyidagi amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan.

1. Bemorlarda EKG o'tkazish.
2. EKGni tahlil qilish.
3. Pikfloumetriya o'kazish va natijalarini tahlil qilish.

Modul davomida egallanadigan kompetensiyalar (nomi, kodi) ro'yhati:

UK 1¹. Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish;

UK 2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;

UK 3. Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;

UK 4. O'z-o'zini rivojlantirishga, anglashga, o'qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik;

UK 5. Favquloddagi vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya usullarini qo'llashga tayyorlik;

UKK 1². Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik;

UKK 2. Professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun og'zaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik;

UKK 3. Tibbiy xujjatlarni yuritishga tayyorgarlik;

UKK 4. Kasbiy muammolarni hal qilishda dori vositalarini va ularning kombinatsiyalarini tibbiy maqsadlarda ishlatishga tayyorlik;

UKK 5. Bemorlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil etish va dastlabki tibbiy sanitar yordam ko'rsatishni ta'minlashga tayyorlik;

¹ УК - Умумий компетенция

² UKK – умумий касбий компетенция

UKK 6. Tibbiy yordam ko'rsatishda ko'zda tutilgan tibbiy asboblardan foydalanishga tayyorlik.

Modul davomida o'quv (klinik) amaliyotni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

O'quv klinik amaliyotni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Talabalarning "Ambulator poliklinik terapiya" moduli bo'yicha klinik amaliyoti ta'lim jarayonining 50%ini tashkil qiladi va amaliy mashg'ulotlar TTA kup tarmokli klinika va Toshkent shahar oilaviy poliklinikalar va statsionar bo'limlarida o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotda amaliy ko'nikmalarga o'rgatish jarayoni batafsil rejalashtiriladi va 3 bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Birinchi bosqich – mashg'ulotning maqsadi va vazifalari aniqlanadi, o'rganilayotgan ko'nikmadan foydalanishning motivatsion asosi, uning nazariy jihatlarini muhokama qilinadi. Agar texnik vositalarni qo'llash talab etilsa (pikfloumetr, elektrokardiograf, tonometr, otoskop, oftalmoskop va sh.o'.), unda ularning ta'sir mexanizmi, qo'llash texnikasi tanishtiriladi.

2. Ikkinchi bosqich - ko'nikmani namoyish qilib berish va ko'p marta mashq qilish – bunda ko'nikmani bosqichlarga to'g'ri taqsimlashga alohida e'tibor qaratiladi. Teskari aloqani olgunga qadar, ya'ni o'rganayotgan shaxs mustaqil, biroq pedagog nazorati ostida bajara olganda, ko'nikmani bajarishning barcha bosqichlarini umumlashtirish va mulyajlarda, o'zaro bir-birida ko'p marta mashq qilish va faqat ko'nikmaga ega bo'lgandan so'ng bemorda qo'llaguncha, har bir bosqich namoyish qilinadi va ishlab chiqiladi.

Uchinchi bosqich - o'rganilgan bilim va amaliy ko'nikmani bemorda qo'llash. Bu bosqichda talaba o'zlashtirilgan bilim va amaliy ko'nikmani turli xil klinik xolatlarda (shu jumladan shoshilinch holatlarda) qo'llashga, olingan natijalarni taxlil qilishga va shu ma'lumotlar asosida harakat taktikasini belgilashga pedagog nazoratida o'rgatiladi.

Uchinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedra tomonidan ishlab chiqilgan o'quv, uslubiy qo'llanmalar, fotosuratlar, vaziyatli masalar va testlar to'plami, keyslar, diagnostika va davolash standartlari, kasallik tarixlari va ambulator kartalar va x.q. ishlatilishi lozim. Interfaollik shunda namoyon bo'ladiki, bunda boshqa talabalar nafaqat ekspert sifatida chiqishda va o'qitilayotgan talabaning amaliy ko'nikmani to'g'ri o'zlashtirganligini baholashda balki komandada ishlashda ishtirok etadilar.

3. Turtinchi bosqich – xulosa. O'rganayotgan shaxs bilan ushbu ko'nikmaning ahamiyatini muhokama qilish va uni turli vaziyatlarda qo'llash. So'rov asosida birlamchi bo'g'inning maqsadi va vazifalariga erishilganligiga ishonch hosil qilish. O'qitish jarayonida yuzaga kelgan muammolarni aniqlash va hal qilish.

Talabalarga bajarilayotgan amallar algoritmi mavjud bo'lishi lozim (kafedraning uslubiy qo'llanmasida kasbiy yo'riqnomalar batafsil yoritilgan, o'quv xonasi devoriga sxema ko'rinishida osib qo'yilgan bo'lishi lozim). To'rtinchi bosqichni amalga oshirish uchun talaba bemor bilan mustaqil ishlashi pedagog tomonidan nazorat qilinadi, tibbiy hujjatlarni, kasallik tarixini yozib himoya qilganda baholanadi.

Mashg'ulot so'nggida o'qituvchi har bir talabaning amaliy ko'nikmani o'zlashtirganligini tasdiqlaydi. Talaba amaliy ko'nikmani o'zlashtira olmagan vaziyatlarda, mashg'ulotdan tashqari vaqtda mustaqil o'zlashtirish tavsiya etiladi va pedagogga qayta topshiradi. Talaba barcha amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirgan holda modulni o'zlashtirgan hisoblanadi.

4. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar, tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

4.1. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzular ro'yhati: 11-semestr:

1. Pnevmoniya etialogiyasi, klassifikatsiyasi. Pnevmoniya, o'pka absessi, o'pka raki, o'pka xinokokki klinik ko'rinishlari va shakllari, tekshirish usullari, asoratlari. (Auditoriyadan tashqari ish).

2. Pnevmoniya, o'pka tuberkulezi va o'pka raki etialogiyasi va klassifikatsiyasi.

(Auditoriyadan tashqari ish).

3. Pnevmoniya, tuberkulez va o'pka infarkti etalogiyasi, patogenezi, tasnifi, klinik ko'rinishi va shakllari. Tekshirish usullari va asoratlari. (Auditoriyadan tashqari ish).

4. SOO'K(XOBL) etalogiyasi, klassifikatsiyasi, klinik ko'rinishlari, tekshiruv usullari va asoratlari. (Auditoriyadan tashqari ish).

5. Yurak mushaklarining fiziologik vazifalari. Normal EKG. (Auditoriyadan tashqari ish).

6. Aritmiyada qo'llaniladigan dori vositalarining farmakodinamikasi. (Auditoriyadan tashqari ish).

7. O'tkazuvchanlik buzilishining etiologiyasi va patogenezi. (Auditoriyadan tashqari ish).

8. Arterial gipertenziya, gipertoniya kasalligi va buyrakka bog'liq bo'lgan arterial gipertenziya etalogiyasi, patogenezi, klassifikatsiyasi. (Auditoriyadan tashqari ish).

9. Arterial gipertoniya va endokrin kasalliklarida kuzatiladigan arterial gipertenziya etalogiyasi, patogenezi va klassifikatsiyasi. (Auditoriyadan tashqari ish).

10. Yurak ishemik kasalligi etalogiyasi, patogenezi, klassifikatsiyasi va davolash usullari. (Auditoriyadan tashqari ish).

11. Miokard infarkti, etalogiyasi, patogenezi. Miokard infarktida qo'llaniladigan dori vositalarining farmakodinamikasi. (Auditoriyadan tashqari ish).

12. Perikardit rivojlanish sabablari va diagnostikasi. O'ATE (TELA) va qavatlanuvchi anevrizmasi etiopatogenezi va klinikasi (Auditoriyadan tashqari ish).

13. Revmatizm va revmatoidli artrit kasalliklarining diagnostik kriterialari. Revmatizmning diagnostik kriterialari. (Auditoriyadan tashqari ish).

14. Buyrakning yallig'lanish va immun yallig'lanish kasalliklarining etalogiyasi, patogenezi, kasalliknin klinik namoyon bo'lishi, diagnostikasi va aktivlik kriterialari. (Auditoriyadan tashqari ish).

15. Disfagiya rivojlanish sabablari, etalogiya, patogenezi, og'riq hosil bo'lish mexanizmi. Disfagiya rivojlanishidagi xavf omillar. (Auditoriyadan tashqari ish).

16. Yara kasalligining klinik ko'rinishlari, kliniko-labarator kriterialari, asorati va davolash usullari. (Auditoriyadan tashqari ish).

17. Pankreatit etalogiyasi, patogenezi, va tasnifi. Oshqozon osti bezi o'smasida o'tkaziladigan diagnostik tekshiruvlar. (Auditoriyadan tashqari ish).

18. Shish sindromi etalogiyasi, patogenezi, klinik namoyon bo'lishi va diagnostikasi. (Auditoriyadan tashqari ish).

12 semestr:

1. Gipotenziv dori vositalarning klassifikatsiyasi (Auditoriyadan tashqari ish).

2. Gemodinamik va serebral arterial gipertenziya etalogiyasi, patogenezi va gipotenziv dori vositalarning klassifikatsiyasi. (Auditoriyadan tashqari ish).

3. Seronegativ spondiloartritlarning (Reaktiv artrit, Bexterev kasalligi, psoriatik artrit) diagnostik kriterialari. Revmatizmning diagnostik kriterialari. (Auditoriyadan tashqari ish).

4. Kardiomegaliya kelib chiqish sabablari, kardiomegaliya turlari, klinik simptomlarining o'ziga xosligi, EKG dagi va rentgenologik tekshiruvlardagi o'zgarishlar xamda davolash. Yurak mitral nuqsonining etalogiyasi, patogenezi, klinikasi va diagnostikasi (Auditoriyadan tashqari ish).

5. Biriktiruvchi to'qima diffuz kasalliklarining diagnostik kriterialari, faollik darajalari va davolash usullari. (Auditoriyadan tashqari ish).

6. Surunkali buyrak kasalligi etalogiyasi, patogenezi, klassifikatsiyasi, klinik sindromlari, diagnostikasi vadavolash usullarida qo'llaniladigan dori vositalarining farmakodinamikasi. (Auditoriyadan tashqari ish).

7. Yurak nuqsonlarining revmatizm, infeksiyon endokardit va aorta aterosklerozi kasalliklarida

rivojlanish sabablari. EKG va rentgenologik tekshiruvdagi belgilari va davolash usullari. Aortal yurak nuqsonlarining etalogiyasi, patogenezi, klinikasi va diagnostikasi. (Auditoriyadan tashqari ish).

8. Jigar serrozi etiopatogenezi, klinik ko‘rinishlari, va diagnostikasi. (Auditoriyadan tashqari ish).

9. Sariqlik bilan kechuvchi kasalliklar etiopatogenezi, klinik ko‘rinishlari, kasallikning sindromal diagnostikasi. (Auditoriyadan tashqari ish).

10. Oshqozon-ichak kasalliklaridagi farmakoterapiyaning o‘ziga xos xususiyatlari va asoratlaridagi taktika. (Auditoriyadan tashqari ish).

11. Qarilikning diagnostikasi, qari organizmning fizioalogiyasi, yosh normalari. Osteoparoz etalogiyasi, patogenezi, diagnostik kriterialari va qari organizm fizialogiyasi. (Auditoriyadan tashqari ish).

12. Ateroskleroz, o‘pka emfizemasi kasalligi diagnostik kriterialari va tasnifi. (Auditoriyadan tashqari ish).

13. Gastrit, yara kasalligi, kollitlarning diagnostik kriterialari va tasnifi. (Auditoriyadan tashqari ish).

14. Qon aylanishi yetishmovchiligi etalogiyasi, patogenezi, klassifikatsiyasiva klinik surati. Yurak glikozidlari, β -blokatorlar, APF ingibitorlari, siydik xaydovchi vositalarning qo‘llashdagi o‘ziga xos xususiyatlari. (Auditoriyadan tashqari ish).

15. Kardiomegaliya kelib chiqish sabablari, kardiomegaliya turlari, klinik simptomlarining o‘ziga xosligi, EKG dagi va rentgenologik tekshiruvlardagi o‘zgarishlar. Davolash, β -adrenoblokatorlar va yurak glikozidlarni qo‘llashda o‘ziga xos xususiyatlari. (Auditoriyadan tashqari ish).

16. Yurak nuqsonlari rivojlanishi, etalogiyasi, patogenezi, organik va funksional yurak shovqinlarining xosil bo‘lish mexanizmi, auskultatsiyadagi o‘zgarishlar, mutloq va nisbiy belgilari, kichik qon aylanishidagi bosim oshishi belgilari, nuqsonlar kechishining o‘ziga xosligi. (Auditoriyadan tashqari ish).

17. Miokardit va miokardiodistrofiyalarni etalogiyasi, patogenezi va davolash usullari. Miokardit va miokardiodistrofiyalarni davolashda qo‘llaniladigan dori vositalarning farmakodinamikasi. (Auditoriyadan tashqari ish).

18. Isitma turlari, shakllari (Auditoriyadan tashqari ish).

4.2. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:

Modul bo‘yicha tavsiya etilayotgan mustaqil ishlar modul tizimida turli xil shaklda amalga oshiriladi:

- berilgan mavzu bo‘yicha axborot (referat) tayyorlash;
- modulning bo‘limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo‘yicha ishlash va ma‘ruzalar qilish;
- ilmiy maqola, anjumanga ma‘ruza tezislarini tayyorlash;
- vaziyatli va klinik muammollarga yo‘naltirilgan vaziyatli masalalar yechish;
- keys (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida case-study) yechish;
- grafik organayzerlash ishlab chiqish va to‘ldirish;
- krossvordlar tuzish va yechish;
- prezentatsiya va videoroliklar tayyorlash hamda mustakil ish jarayonida keng qo‘llash va h.k.

4.3. Mustaqil ta‘lim va mustaqil ishlarni tashkil etish bo‘yicha umumiy ko‘rsatma va tavsiyalar:

Modul bo'yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o'tkaziladi.

Talaba mustaqil ishni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari trenajyor, mulyaj va simulyatsion zallarda/markazlarda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish daftarlarida aks ettirish;

- tibbiyot OTM klinikalari va klinik o'quv bazalarida auditoriyadan tashqari tashkillashtirilgan klinik navbatchilikda tasdiqlangan ro'yxat asosida navbatchi shifokor-pedagog nazoratida standartlashtirilgan patsientlar (bemorlar) kuratsiyasini o'tkazish va olib borish, dori bilan davolash tahlilini yozish va navbatchilik daftarlarida aks ettirish;

- tibbiyot OTM klinikalari va klinik o'quv bazalarida auditoriyadan tashqari tashkillashtirilgan klinik navbatchilikda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni navbatchi shifokor-pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va navbatchilik daftarlarida aks ettirish;

- bemorlarni kuratsiya qilishda davolovchi yoki navbatchi shifokor bilan ishtirok etish;

- aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'gib qilish, bolalarni yoshi va sog'lig'iga bog'liq ovqatlanirish tamoyillari haqida suhbat va ma'ruzalarni o'tkazish;

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;

- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;

- modulning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;

- vaziyatli va klinik muammolarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar yechish;

- CASE (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida sase-study) yechish.

- modellar yasash, krossvordlar tuzish, organayzerlar tuzish va h.k.

Ambulator poliklinik terapiya moduli bo'yicha kurs ishi rejada ko'zda tutilmagan.

5. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

5.1. Asosiy adabiyotlar :

1. Gadaev A.G. Ichki kasalliklar, Darslik. T: Turon Zamin Ziyo, 2021 y.

2. Gadaev A.G. Terapiya. Darslik. (o'zb.tilida). 2018 y.

3. Gadaev A.G. Terapiya. Uchebник. (na rus yaz). 2018 y.

4. Karimov Sh.I. va boshqalar. Sog'lom ovqatlanish- salomatlik mezon. Toshkent, 2015 y.

5. Karimov Sh.I., Teshayev O.R., Gadaev A.G., Nurillaeva N.M. Oilaviy tibbiyot asoslari. O'quv qo'llanma. -Toshkent. O'zbekiston nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2017 y.

5.2. Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Nurillaeva N.M., Xasanova N.A. va boshqalar. Xolter monitorlash asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2019 y.

2. Shoalimova Z.M., Nuritdinova N.B. Kardiomegaliya sindromi. O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent 2019 y.

3. Nurillaeva N.M., Zubaydullaeva M.T. Geriatriyada qariyalarni kompleks baholash. O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2019 y.

4. Gadaev A.G., Rozikov A.A., Raximova M.E. Amaliy elektrokardiografiya. - Toshkent. Turon Zamin Ziyo nashriyoti. 2016 y.

5. Harrison's Textbook Principles of Internal Medicine-19th Edition – 2015.

6. Robert E. Rakel, MD Textbook_of_family_medicine - 2016

5.3. Internet saytlari:

1. www.medlook.ru
2. www.medbok.ru
3. www.medicum.ru
4. www.medtext.ru
5. www.medkniga.ru
6. www.cardioline.ru
7. [www: http://buks.ru/book](http://www.buks.ru/book); [http:// asp 2013. ru/medicine/01/medicine 100645](http://asp.2013.ru/medicine/01/medicine_100645);
8. [http:// medprom.ru/ medprom](http://medprom.ru/); <http://>
9. www.docs.pp.ru
10. www.ziyonet.uz;
11. www.lex.uz;
12. [www. cardiosite.ru](http://www.cardiosite.ru);
13. [www. cardiologia.ru](http://www.cardiologia.ru);
14. www.bilim.uz;
15. www.gov.uz;
16. www.mf.uz.